

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



BIOGEOGRAFIYA
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 500 000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika

Ta'lim sohasi: 530 000 – Fizika va tabiiy fanlar

Ta'lim yo'nalishi: 60530200 – Geografiya

Chirchiq- 2024

Fan/Modul kodi BG2404		O'quv yili 2025-2026	Semestr 4	ECTS-Kreditlar 4	
Fan/Modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Xaftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Biogeografiya	60	60	120	
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga biogeografiyaning nazariy asoslariga doir bilimlarni, xususan, Yer yuzining turli hududlari o'simlik va hayvonot olami jamoalarining evolyusion kelib chiqishi, shakllanishi, geografik tarqalish qonuniyatlari, faunistik va floristik tarkibi, biosfera tarkibidagi tirik organizmlar va ularning guruhlari o'rtasidagi hamda ekologik muhit bilan o'zaro ta'siri va roli, atrof-muhitning yomonlashib borishi natijasida tirik tabiatning o'zgarishini makonda va zamonda ko'rsatib bera olishga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi – talabalarga tirik organizmlarning Yer sharida zamonaviy taqsimlanishini bilish, yaxlit yoki alohida turlarning tarqalish va taqsimlanish sabablarini hamda qonuniyatlarini aniqlash, tirik organizmlarning klassifikatsiyasi, areallar va ularning ko'lemi, Yer yuzasining floristik va faunistik komplekslari, madaniy o'simliklar va uy havo vonlarining kelib chiqishi, bioxilma-xillikni saqlab qolishning ahamiyatini ochib berish. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. "Biogeografiya" fanining maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti "Biogeografiya" fanining maqsadi va vazifalari, o'rganish obyekti va predmeti. Fanlar sistemasida tutgan o'ri, boshqa fanlar bilan aloqalari. Biogeografiya, uning turlari, fanning ahamiyati. 2-mavzu. Biogeografiyaning rivojlanish bosqichlari Biogeografiya va uni davrlarga bo'linishi. Buyuk geografik kashfiyotlar davri, biogeografiyaning fan sifatida rivojlanish davri, biogeografiyada evolyusion g'oyalarning rivojlanishi, 21-asr biogeografiyasi. Zoogeografiya va geobotanika. O'zbekistonda biogeografiyaning rivojlanishi. 3-mavzu. Organizmlarning tarqalish omillari. Abiotik omillar Muhit omillari. Tirik organizmlarning biosferada tarqalishi va uning muhit sharoitlari bilan bog'liqligi. Abiotik omillar.				

4-mavzu. Biotik va antropogen omillar

Biotik va antropogen omillar. Dengiz va okeanlarda tirik organizmlarning tarqalishi hamda yashash sharoitlari, quruqlikda tirik organizmlarning tarqalishi va yashash sharoitlari.

5-mavzu. Ekosistema, biom va biogeotsenoz

Ekosistema, biogeotsenoz va biomlar haqida tushuncha. Ekosistemaning asosiy komponentlari. Tirik organizmlar ekosistemaning asosiy qismi: avtotroflar, geterotroflar, produtsentlar, konsumentlar, redutsentlar. Yer sharidagi asosiy biomlar.

6-mavzu. O'simlik va hayvonlarning hayot formalari

Tirik organizmlarni har xil klassifikatsiyalarga bo'linishi. Divergensiya va konvergensiya. Organizmlarning hayot formalari. K.Raunkier bo'yicha o'simliklarning yashash formalari. Hayvonlarning hayot formalari. A.N.Formozov bo'yicha moslashuv tiplari.

7-mavzu. Areal haqida ta'limot asoslari

Biogeografiyada areal tushunchasi, tur areali - biogeografik tuzilishning asosi, areallarni kartalashtirish uslublari, areal ko'lami, shakli va ularni belgilovchi asosiy omillar. Quruqlik va dengiz hayvonlarining areallari.

8-mavzu. Areal tiplari va ularning xususiyatlari

Arealda o'simlik va tirik organizmlarni tarqalishi, ubikvistlar va kosmopolitlar, keng va tor areallar, reliktlar va endemiklar, paleoendemiklar va neoendemiklar, avtohtonlar va aborigenlar.

9-mavzu. Areallarda o'simlik va hayvonlarning tarqalishi

Yaxlit, dog'li va uzilgan areallar, areallarda o'simlik va hayvonlarning tarqalishi, tur arealini o'rganishning ahamiyati.

10-mavzu. Yer yuzasining floristik va faunistik rayonlashtirilishi

Biogeografik rayonlashtirishning zarurligi, rayonlashtirishdagi asosiy prinsiplar, rayonlashtirish jarayonida turli rangdagi hududiy kategoriyalar, rayonlashtirish tarixi, biogeografik rayonlashtirish va uning amaliy ahamiyati.

11-mavzu. Yer yuzasining floristik rayonlari

Yer yuzasining floristik rayonlashtirilishi. Floristik komplekslar haqida tushuncha, floristik rayonlashtirish va uning amaliy ahamiyati.

12-mavzu. Yer yuzasining faunistik rayonlari

Yer yuzasining faunistik rayonlashtirilishi. Faunistik komplekslar haqida tushuncha.

13-mavzu. Madaniy o'simlik va uy hayvonlari geografiyasi

Madaniy o'simlik va uy hayvonlarining kelib chiqishi. N.I.Vavilovning "Madaniy o'simliklarning kelib chiqishi", "Besh qit'a" ishlarida madaniy o'simliklar markazlarining kelib chiqishi xususida.

14-mavzu. Uy hayvonlarilarining kelib chiqish markazlari

Madaniy hayvonlarning kelib chiqish markazlari va Yer yuzasiga tarqalishi. Muhim markazlar va ularning tavsifi.

15-mavzu. Biologik xilma-xillik va uni muhofaza qilish

Genetik, turlar va ekosistema xilma xilligi. Ekologik muammolar va ularning bioxilma-xillikka ta'siri, BMtning Atrof muhit bo'yicha ixtisoslashgan tashkiloti YUNEP, biologik resurslar sanoat va tibbiyot uchun muhim xom-ashyo manbai ekanligi. Biologik xilma-xillikni ekosistema darajasida muhofaza qilish. Noyob va yo'qolib borayotgan xillarni muhofaza qilish. Alohida muhofaza etiladigan hududlarni joylashtirishning geografik tamoyillari.

III. Amaliy mashg'ulotlarni bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

1. Biogeografiyaning rivojlanish bosqichlarini jadvalda aks ettirish.
2. Jonli va jonsiz tabiat o'rtasidagi farqlar, tirik organizmlar sistemasi, taksonomik kategoriyalar tahlili.
3. Flora tarkibi, flora va ularni belgilovchi ekologik omillar. O'simliklarning hayotiy shakllari yozma tavsif berish.
4. Fauna tarkibi, endemizm. Tirik organizmlarga antropogen omillarning ta'siriga yozma tavsifi.
5. Cho'l o'simliklari va hayvonlari hamda ularning geografik tarqalishi tahlili.
6. Adir o'simliklari va hayvonlari hamda ularning geografik tarqalishi tahlili.
7. Tog' o'simliklari va hayvonlari hamda ularning geografik tarqalishi tahlili.
8. Yaylov o'simliklari va hayvonlari hamda ularning geografik tarqalishi tahlili.
9. Quruqlikning faunistik rayonlashtirish sxemasi hamda zamonaviy shox bo'lim va oblastlarga tavsif berish.
10. Faunistik komplekslar tushunchasini konkret misollar yordamida o'rganish, ma'lum hududlarda faunaning shakllanish sharoitlari, turli sistematik rangdagi endemiklarni yozma tavsifi.

11. Dunyoning floragenetik kartasini o'rganish, quruqlikning floristik rayonlashtirish sxemasi, zamonaviy shox bo'lim va oblastlardagi flora ta'rif berish.
12. Suv yuzasining floristik rayonlariga yozma ta'rif berish.
13. N.I. Vavilovning "Madaniy o'simliklarning kelib chiqishi", "Besh qit'a" ishlarini o'rganish, madaniy o'simliklarning kelib chiqish markazlarining tahlili.
14. Uy hayvonlarining kelib chiqish markazlarini kontur kartada tasvirlash va tahlil qilish.
15. Muhofaza hududlarida qizil kitobga kiritilgan o'simlik va hayvonat dunyosining tahlili.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarining jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Biogeografiyaning yo'nalishlari
2. Organizmlarning ekologik guruhlari
3. Atrof muhit omillari va o'simliklarning tarqalishi
4. Quruqlik yuzasidagi biotlar
5. V.I. Vernadskiyning biosfera haqidagi ta'limoti
6. Areologiya
7. Floristik rayonlashtirish tushunchasi va taksonomik birliklari
8. Floristik shox bo'limlari va uning oblastlari.
9. Cho'l o'simliklari va hayvonlari hamda ularning geografik tarqalishi tahlili.
10. Adir o'simliklari va hayvonlari hamda ularning geografik tarqalishi tahlili.
11. Tog' o'simliklari va hayvonlari hamda ularning geografik tarqalishi tahlili.
12. Yaylov o'simliklari va hayvonlari hamda ularning geografik tarqalishi tahlili.
13. Zoogeografik shox bo'limlar va uning oblastlari
14. N.I. Vavilovning "Madaniy o'simliklarning kelib chiqishi", "Besh

	qit'a" ishlarini o'rganish, madaniy o'simliklarning kelib chiqish markazlarining tahlili. 15. Abiotik omillar 16. Biotik va antropogen omillar 17. Yer sharidagi asosiy biotlar 18. Quruqlik va dengiz hayvonlarining areallari 19. Biogeografik rayonlashtirish va uning amaliy ahamiyati 20. Floristik rayonlashtirish va uning amaliy ahamiyati 21. Yer yuzasining faunistik rayonlashtirilishi 22. Madaniy o'simlik va uy hayvonlarining kelib chiqishi 23. Madaniy hayvonlarning kelib chiqish markazlari 24. Ekologik muammolar va ularning biotilma-xillikka ta'siri 25. Alohida muhofaza etiladigan hududlarni joylashtirishning geografik tamoyillari
3.	V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - biogeografiya fani haqidagi umumiy tushunchalar; - biogeografiyaning rivojlanish tarixi, ekologik omillar; - tirik organizmlarning klassifikatsiyasi, areallar va ularning ko'lam; - Yer yuzasining floristik va faunistik komplekslari, biotilma-xillik haqida bilim; - biogeografik tadqiqotlarning zamonaviy metodlarini; - muayyan hududlar biologik resurslarini baholash, areallarni kartalashtirish; - muhofaza qilish chora tadbirlarini ishlab chiqish ko'nikmasiga; - biosfera va biogeotsenoz komponentlarining o'zaro munosabatlarini aniqlash va ta'riflash; - turli taksonomik darajadagi landshaftlarda o'simliklar va hayvonlar turlarini aniqlay olish; - biogeografik tadqiqotlarini tashkil etish hamda turli karta bilan ishlash malakasiga ega bo'lishi kerak.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari. - ma'ruzalar; - interfaol keys-stadilar; - seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); - guruhlarda ishlash; - taqdimotlarni qilish; - individual loyihalar; - jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida

	berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.
6.	VIII. Asosiy adabiyotlar 1. Yuldashev A.S., Shamuratova N.T., Mamaraximov O.M., Maxkamov T.X., Naraliyeva N.M. Biogeografiya. Toshkent: "Fan ziyosi", 2024, 478 b. 2. Холбоев Ф.Р., Бақоев С.Б., Мирхонова З.П. Зоогеография. Бухоро 2008. IX. Qo'shimcha adabiyotlar 3. Воронов А.Г. Биогеография с основми экологии. -М.: "Наука", 1987. 4. Гржимек Б. Экологические очерки о природе и человеке. -М.: "Прогресс", 1988. 5. Xolboyev F.R., Mirxonova Z.P., Shodiyeva F.O. Zoogeografiya. Toshkent 2023, 263 b. 6. Жумашев А.П. Эколого-географические условия и типы пустынь Средней Азии. -Ашхабад: Изд. "Ылим", 1990. X. Axborot manbalari: 7. www.cspu.uz – Chirchiq davlat pedagogika universiteti rasmiy sayti. 8. www.unilibrary.uz – O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarining yagona elektron kutubxona axborot tizimi. 9. www.lib.cspu.uz – Chirchiq davlat pedagogika universiteti kutubxona web sayti. 10. www.geografiya.uz – Geografiya sohasiga qiziquvchilar uchun ilmiy-ommabop sayt.
7.	Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024-yil "29" <u>avgust</u> dagi qarori bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ul: Urazbayev A.K. – Chirchiq davlat pedagogika universiteti Geografiya kafedrasi professori, g.f.d., prof.
9.	Taqrizchilar: Ibroimov Sh.I. – Chirchiq davlat pedagogika universiteti Geografiya kafedrasi dotsenti v.b., g.f.f.d., Shamuratova N.T.– O'zMU, "Tabiiy geografiya" kafedrasi dosenti geografiya fanlari nomzodi.